

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

JIGAR SIRROZIDA GEPATOPULMONAL SINDROMNING DIAGNOSTIKASI

Jo'rayeva M.A

Tillaboyev N.A

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dolzarbli: jigar sirrozida gepatopulmonal sindromning (GPS) diagnostikasi, davolash va profilaktikasini.

Tekshiruv usullari va predmeti: Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining 4-terapiya bo'limida jigar sirrozi bilan davolangan bemorlarda laborator va instrumental tekshiruvlar olib borish.

Natijalar va muhokama: Tadqiqotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, gepatopulmonal sindrom bilan asoratlangan jigar sirrozi bo'lgan bemorlarning umr ko'rish davomiyligi ushbu asoratsiz (40,8 oy) bemorlarga nisbatan ancha past (10,6 oy) davom etishi kuzatildi.

Jigar sirrozi bilan xastalangan bemorlarda o'lim sababi jigar etishmovchiligi va portal gipertenziyaning asoratlaridir. Jigar transplantatsiyasidan o'tgan GPS bilan og'rigan bemorlarning o'lim darajasi ham ushbu asoratsiz operatsiya qilingan bemorlarga qaraganda ancha yuqori. Bundan tashqari, operatsiyadan oldin GPS ning og'irligi jigar transplantatsiyasidan keying bemorning hayot prognozini belgilaydi. Jigar transplantatsiyasi qilinmagan bemorlarning hayot prognozi ijobiy emas bo'ldi.. Bunday bemorlarning GPS tashxisi qo'yilgandan keying birinchi yil davomida omon qolish darajasi gipoksemiya darajasiga qarab 16 dan 38% gacha o'zgarib turishi aniqlandi.

Xulosa. Gigar sirrozida kuzatilgan gepatopulmonar sindromI xayot davomoyligini qisqartiradi va transplantasidan so`ngi davrda xam hayot pronozini belgilaydi. Shunday qilib, hozirgi kunga qadar tadqiqotchilarning GPS patogenezini va diagnostika mezonlari haqidagi g'oyalari shu kungacha to'liq o'z yechimini topmagan. Adabiyotlarda o`pkadagi o'zgarishlar va jigar disfunktsiyasining tabiati va sabablari o'rtasidagi bog'liqlik haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas.